(2). Кубрякова Е.С. и др. Краткий словарь когнитивных терминов. Под ...istina.msu.ru publications book. Издательство Московского государственного университета. Москва, 1996. 90 с.

(3). Маслова В.А. Введение в когнитивную лингвистику. Учеб. пособие, М., "Наука", 2011, 296 с.

4). Попова З.Д., Стернин И.А. Понятие «концепт» в лингвистических исследованиях. Воронеж, изд-во Воронеж, ун-та, 2000, 30 с.

(5). Ruth Rendell End in tears a chief inspector wexford mystery. 122 p.

(6). Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. Jizzax, "Sangzor", 2006, 46-bet.

(7). Xudoyberganova antropotsentrik tadqiqi. Toshkent, "Fan", 2013, 286-bet.

(9). O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli, T., "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 1-jild, 2006, 2-jild, 2006, 2008, 592-bet.

(10). Webster's Learners D SESS: 48 OUTPUT. Mon Jul 14 2008 /data31/webster/dict/mw−learners−dictionary/001−fm−copyright, 2032 p.

Abdullayeva Muxtasar Abdulla qizi (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti dots.v.b.,PhD)

O'ZBEK BADIIY ASARLARIDA IDIOMATIK BIRLIKLARNING QO'LLANILISHI VA ULARNING INGLIZ TILIGA TARJIMASI

Annotatsiya. *Hozirgi tilshunoslikda tillar o'rtasidagi munosabatlarni ma'no va ijtimoiy-madaniy voqelikni uzatishning asosiy vositalaridan biri sifatida o'rganish dolzarb mavzulardan biridir. Zamonaviy tilshunoslik tomonidan o'rganilayotgan ko'plab muammolar orasida "tarjima" yoki "tarjima faoliyati" deb ataladigan tillararo nutq faoliyatining lingvistik jihatlarini o'rganish muhim o'rin tutadi. Aynan tarjima orqali biz tarjimonlar yordamida uning talqiniga ega bo'lgan boshqa madaniyatlarning ma'no tizimlariga kirishimiz mumkin. Tarjima bir tilda ifodalangan narsani boshqa til vositasida to'g'ri va aniq ifodalashni nazarda tutadi. Ushbu maqola tarjimashunoslik sohasida mavjud bo'lgan muammolar va ularni bartaraf etishga bag'ishlanadi.*

Kalit so'zlar: *tarjima, tarjimashunoslik, adabiyot, madaniyat, frazeologik birliklar.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИДИОМАТИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В УЗБЕКСКИХ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ И ИХ ПЕРЕВОД НА АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК

Аннотация*. В современном языкознании изучение отношений между языками как одного из основных средств передачи смысла и социокультурной действительности является одной из актуальных тем. Среди множества проблем, изучаемых современной лингвистикой, важное место занимает изучение лингвистических аспектов межъязыковой речевой деятельности, называемое «переводом» или «переводческой деятельностью». Именно посредством перевода мы можем получить доступ к смысловым системам других культур с помощью переводчиков, которые их интерпретируют. Перевод – это правильное и точное выражение того, что выражено на одном языке, на другом языке. Данная статья посвящена проблемам в области переводоведения и их устранению.*

Ключевые слова: *перевод, переводоведение, литература, культура, фразеологизмы.*

THE USE OF IDIOMATIC EXPRESSIONS IN UZBEK FICTION AND THEIR TRANSLATIONS INTO THE ENGLISH LANGUAGE

Annotation. *In modern linguistics, the study of relations between languages as one of the main means of transmitting meaning and socio-cultural reality. Among the many problems studied by modern linguistics, the study of linguistic aspects of interlingual speech activity, which is called "translation" or "translation activity", occupies an important place. It is through translation that we can access the meaning systems of other cultures with the help of translators who interpret it. Translation refers to the correct and precise expression of what is expressed in one language in another language. This article is devoted to problems in the field of translation studies and their elimination.*

Key words: *translation, translation studies, literature, culture, phraseological units.*

Kirish. Xalqimizning sevimli adibi, akademik Muso Toshmuhammad o'g'li Oybekning o'lmas asarlari dunyoning bir qancha tillariga tarjima qilingan. Jumladan, "Navoiy" romani ham Ovrupaning qator tillariga o'girilgan. Adibning bu asaridan olingan ayrim boblari ingliz tiliga ham tarjima qilingan. Quyida biz shu tarjimalar haqidagi mulohazalarimizni bayon qilmoqchimiz.

Tadqiqotning metodologiaysi. Oybekning, ayniqsa, Alisher Navoiy ijodini o'rganishdagi xizmatlari benixoyadir. Bu borada u, hech mubolag'asiz, yetuk navoiyshunoslar qatorida turadi. Uning Navoiy dunyoqarashi, lirikasi, "Xamsa" tahliliga bag'ishlangan tadkikotlari navoiyshunoslikning oltin fondini tashkil etadi. Ayni paytda yetuk alloma Sultonmurod, Fazliddin, noyob va iste'dod sohibi Behzod, Xondamir,

pokiza qalb va aql-zakovat egasi Mo‘min Mirzo, g‘ayratli va fidoyi Arslonquldek qahramonlar Vatan saodati va millat baxtini ko‘zlagan yurtdoshilarimiz uchun yuksak ibrat namunalaridir. Oybek ijodiyoti, xususan, “Navoiy” romanining olamshumul tarbiyaviy ahamiyati ham shundandir.

Tahlil va natijalar. “Asar muallifi o‘zi xohlagan epitet maqol, tez aytish va obrazli iboralardan foydalanadi, mutarjim esa ana shu tasviriy vositalarni qayta yaratish uchun o‘z tilida mavjud bo‘lgan ekvivalentlarni qidirib topadi va asar tiliga xos bo‘lgan xususiyatlarni beradi” (6;126-b.).

Tarjimashunos olim G‘.Salomov frazeologik birliklar haqida so‘z yuritar ekan, shunday deydi: “Agar mendan: tilda ham mo‘'jizalar bo‘ladimi? deb so‘rasalar, men: agar bo‘lsa, tilning “mo‘jizasi” undagi maqol, matal va idiomalardir deb javob qilgan bo‘lar edim. Chindan ham gapning qaymog‘i, shirini, olam-olam ma’no beradigani, shu bilan birga, lo‘ndasi maqol, matallardir (7;3-b.).

Keyingi misolga murojaat qilamiz:

O‘zbek tilida (asliyat) Oybek. Tanlangan asarlar. 177-b.	Ruscha tarjimasi: Айбек. Навои.М.Салье tarjimasi. 140 стр.	Inglizcha tarjimasi: Aybek. Navoi. Uzbekistan speaks. G. Xanna va D.Skvirskiylar tarjimasi. 18 p.
*Shaharlarning, viloyatlarning hokimlari hisob-kitobni **qo‘ltiqlab, bo‘zchining mokisiday**, Hirotga qatnab turishlari lozim emish. Xalq, adolat, qonun degan shiorlar pardasi ostida Navoiy, bilmadim, yana nimalar o‘ylab chiqarar ekan!*	*Правители городов и областей, со счетными книгами **под мышкой**, снуют туда и сюда, словно **челнок ткача**. Прикрываясь словами “народ”, “справедливость”, “закон”, Навои ещё неведомо что надумает.*	*Rules of cities and regions with count-books **under armpits** dash here and there like the **weaver’s shuttle.** While under cover of the words “people”, “justice”, “law” Navoiy will think about God knows what else.*

Bo‘zchining mokisiday iborasi Amir Mo‘g‘ul nutqida **bo‘zchining mokisiday** iborasi rus tili-ga **челнок ткача** tarzida o‘girilgan. Ingliz tiliga rus tilidan o‘girgan mutarjim ham so‘zma-so‘z ***wea-ver’s shuttle*** deb o‘girib qo‘ya qolgan.

Xuddi shunday iborani Nazir Safarovning “Momaqaldiroq” nomli romanida, uning ruscha va inglizcha tarjimalarida ham uchratishimiz mumkin. Shu o‘rinda biz shu romandan ham misol keltirishni lozim topdik.

O‘zbek tilida (asliyat): Safarov N. Momaqaldiroq. 44-b.	Ruscha tarjimasi: Сафаров Н. Гроза. Vladimir Saloux-in tarjimasi. 39 c.	Safarov Nazir. The Storm. Uzbekistan-Contact, 4–6, 1993. 19 p.
*O‘sha kundan boshlab Mamatboyning bir oyog‘i Buxoroda, bir oyog‘i Nurotada **bo‘zchining mokisi** bo‘lib qoldi.*	*Он, как челнок **в ткацком станке,** метался теперь между Бухарой и Нуратой.*	*Like **a shuttle in the weaver’s loom,** he dashed up and down from Bukhara to Nurata and back.*

Bu yerda ham xuddi yuqoridagidek vaziyatni ko‘rishimiz mumkin.

Shu orada Mamatboyning farzandi Dodxudo ham tug‘iladi. Lekin uning uchinchi xotini hali ham Buxoroda edi:

O‘zbek tilida (asliyat): Safarov N. Momaqaldiroq. 50-b.	Ruscha tarjimasi: Сафаров Н. Гроза. Vladimir Saloux-in tarjimasi.45 c.	Safarov Nazir. The Storm. Uzbekistan-Contact, 4–6.1993. 30 p.
*Mamatboy Nurota bilan Buxoro oralig‘ida **bo‘zchining mokkisidek** qatnay berib charchadi.*	*Маматбай, которому надоело **мотаться** между Бухарой и Нуратой, стал подумывать как бы забрать и жену и сына домой.*	*Mamatbai, who **was tired of going** from Bukhara to Nurata and back all the time, began to think of taking his wife and son home.*

Bo‘zchining mokisidek iborasi ***To‘xtovsiz, tez-tez borib-kelib turmoq, qatnamoq*** (8;610-b.) degan ma'nolarga ega. Bu yerdagi ruscha va inglizcha tarjimalarda mutarjimlar butkul ***bo‘zchining mokisidek*** iborasini rus va ingliz tillarida mavjud bo‘lgan idioma yoki frazeologik ibora bilan almashtirma-ganlar. Ruschadagi ***Мотаться*** so‘zi ma’no va uslub jihatidan o‘zbekcha iboraga mos kela oladi. Lekin inglizchada bu so‘zga mos so‘z yoki frazeologik ibora yo‘q. Faqatgina bu ma’noni berish uchun Mamatboyning Buxoro va Nurota o‘rtasida ko‘p sarson bo‘lganligini ko‘psatish uchun ***was tired of going*** kabi oddiygina qilib o‘girilgan. Rus tilida ***bo‘zchining mokisiday*** iborasiga mos bo‘lgan ***сновать, непрерывно бегать*** (9;87-b.), ingliz tilida esa ***be run off one’s feet*** ёки ***be like a squirrel in a cage*** kabi iboralar qo‘llanilganida maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Asarning milliy ruhiga zarar yetmas, rusiyzabon va ingliz-zabon o‘quvchiga esa matn tushunarli bo‘lgan bo‘lar edi.

Keyingi misollarni yana Oybekning “Navoiy” romanidan keltiramiz:

O‘zbek tilida (asliyat).	Ruscha tarjimasi:	Inglizcha tarjimasi:

Oybek. Tanlangan asarlar. 177-b.	Айбек. Навои.M.Sal'ye tarjimasi. 140 с.	Aybek. Navoi. Uzbekistan speaks. G.Xanna va D. Skvirskiylar tarjimasi. 18 p.
Navoiy ***qosh qo'yaman deb, ko'z chiqarmoqchi.***	*Навои,* ***желая подсурмить ресницы, выжигает глаза.***	***Wishing to put eye – paint on the lashes,*** *Navoiy* ***burns out the eyes?***

Qosh qo'yaman deb ko'z chiqarmoq *yaxshi, foydali ish qilish uchun urinib, yomon, xato ish qilib qo'ymoq, tuzataman deb buzmoq* (10;352-b.) degan ma'nolarni anglatadi. Bu yerda ham xuddi yuqorida ko'rsatib o'tilgan vaziyatga duch kelamiz, ya'ni, ***qosh qo'yaman deb ko'z chiqarmoq*** iborasi rus tiliga so'zma-so'z "қош қўяман деб кўз чиқармоқ" deb so'zma-so'z o'girilgan. Rus tilidan o'girgan ingliz tarjimoni esa ***Wishing to put eye – paint on the lashes, ...burns out the eyes*** deb o'girib qo'ya qolgan. Rus tiliga ***оказать медвежью услугу*** deb ingliz tiliga esa ***do somebody more harm than good*** deb o'girilishi lozim edi.

Quyidagi misolda ham xuddi shunday so'zma-so'z tarjimaning guvohi bo'lamiz. Amir Mo'g'ul va Majdiddinning so'zlarini tasdiqlab, Xo'ja Xatib Navoiy haqida suhbatni davom ettiradi.

O'zbek tilida (asliyat). Oybek. Tanlangan asarlar. 177-b.	Ruscha tarjimasi: Айбек. Навои. M.Salye tarjimasi. 140 с.	Inglizcha tarjimasi: Aybek. Navoi. Uzbekistan speaks. G.Xanna va D. Skvirskiylar tarjimasi. 18 p.
– Alisher Navoiy el va ulusga o'zini yaxshi ko'rsatur, mamlakat uning guruhi ***qo'lida o'yinchoq bo'lur.***	*–Алишер Навоий выставляет себя благодателем государства и народа; государство* ***стало игрушкой в руках*** *его сторонников.*	*"Alisher Navoiy makes himself out as a benefactor of the State and the people; the State has turned out* ***to be a toy in the hands*** *of his followers."*

Qo'lida o'yinchoq bo'lmoq iborasi ***Birovning xohishini so'zsiz, ko'r-ko'rona bajaruvchi, itoatgo'y; qo'g'irchoq*** degan ma'noga ega bo'lib, rus mutarjimi M.Salye ***qo'lida o'yinchoq bo'lmoq*** idiomasini so'zma-so'z, ya'ni ***стать игрушкой в руках*** deb o'giradi. Bundan foydalangan ingliz mutarjimi G. Ovchinnikova ham ***to be a toy in the hands...*** deb o'giradi. Ba'zan, iboralarni so'zma-so'z o'girish tarjimada qo'llaniladi, bu esa yaxshi natija berishi mumkin; ruscha tarjima shunga misol, chunki ibora ma'nosi o'quvchiga tushunarli, asar kontekstidan kelib chiqadi. Bundan tashqari, muallif uslubi haqida ma'lumot beradi, personajning gapirish uslubiga mos, tarjima tilini ham boyitadi. Bu yerda matn mazmuni va mohiyatiga zarar yetmagan. O'zbekcha ma'no ruscha va inglizcha tarjimalarda ham to'la saqlangan.

O'zbek tilida (asliyat): Oybek. Tanlangan asarlar. 177-b.	Ruscha tarjimasi: Айбек. Навои.M.Salye tarjimasi. 219 с.	Inglizcha tarjimasi: Aybek. Navoi. Uzbekistan speaks. G.Xanna va D.Skvirskiylar tarjimasi. 18 p.
Ammo menga maqsadingiz ***fonus ichidagi o't kabi ravshan ko'rinadi.***	*Ведь я вижу ваши цели* ***так же ясно, как огонь в фонаре.***	*For I see you aims* ***as clearly as the fire in the lantern.***

Oybek yuqoridagi iborani, ya'ni, ***fonus ichidagi o't kabi ravshan*** iborasini ishlatar ekan, o't suzini ***olov*** ma'nosida emas, ***yorug'lik, fonusdan taralayotgan nur*** ma'nosida qo'llagan. Lekin rus va ingliz mutarjimlari esa bu iborani aynan ag'darganlar. Rus va ingliz tilida mavjud bo'lgan muqobillarni izlamaganlar. Agar bu ibora rus tiliga ***ясно как день*** deb, ingliz tiliga esa ***as clear as day*** deb o'girilganda tarjima matni ravon, tushunarli bo'lgan bo'lur edi, deb o'ylaymiz. Badiiy o'xshatishning so'zma-so'z tarjimasi asarda, ya'ni boshqa tilda o'z ta'sirini yo'qotishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Til vositalaridan qanday foydalanishni belgilab beradigan ijodiy o'ziga xoslik yozuvchining dunyoqarashi, nafosat haqidagi tushunchasi, adabiy maktab va davr estetikasi bilan chambarchas bog'liqdir. Binobarin, muayyan davr yoki adabiy muhit namoyandasi bo'lishi biron yozuvchidan asarini tarjimon o'zi xohlaganicha o'z uslubiga "bo'ysundirgan" holda, izniga solib o'giraverishi mumkin emas. Shuning uchun ham har bir tarjimon o'z e'tiqodi, uslubi, estetik idealiga yaqin adibning asarini tarjima qilgandagina muvaffaqiyat qozona oladi. Shuni ta'kidlash lozimki, vaziyatga mos so'z va iboralarni tanlay bilish mutarjimdan katta mas'uliyat talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Karimov I.A.. Yuksak ma'naviyat–yengilmas kuch. T., "Ma'naviyat", 2011, 47-bet.
(2). "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", 2005, 6-may.
(3). Muxtor A. Tarjima umrboqiy bo'lsin. Tarjima san'ati. 4-kitob, T., 1978, 16-bet.

(4). Амосова Н.Н. Основы английской филологии. Л., изд-во Ленингр. ун-та, 1963, с. 96; Кунин А.В. Фразеология современного английского языка. М., Международные отношения, 1972, с. 8; Kuzmin S.S. Translating Russian Idioms. M., "Higher School", 1977, p. 8.

(5). Федоров А.В. Введение в теорию перевода (лингвистические проблемы). М., 1958, с. 171.

(6). Владимирова Н. Некоторые вопросы художественного перевода с русского на узбекский язык. Т., "Фан", 1957, с. 126.

(7). Salomov G'. Rus tilidan o'zbekchaga maqol, matal va idomalarni tarjima qilish masalasiga doir. Toshkent, 1961, 3-bet.

(8). O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-jild. T., "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2020, 610-bet.

(9). Узбекско-русский словарь. Т., Главная редакция УзСЭ, 1988, с. 87.

(10). O'zbek tilining izohli lug'ati. 5-jild, T.:"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2020, 352-bet.

(11). O'zbek tilining izohli lug'ati. 5-jild, T., "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2020, 141-bet.

Komilova Gavharoy (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti v.b., PhD; e-pochta: r_gavharov@mail.ru; ORCID: 0000-0003-4846-2100)

TIL TA'LIMI QADRIYAT SIFATIDA

Annotatsiya. *Qadriyatlar tilning tarkibiy qismi sifatida qaralar ekan, o'z navbatida, til ta'limi jarayonida qadriyatlarning singdirilishiga ham e'tibor qaratiladi. Bu esa til ta'limiga qadriyat sifatida qarash dolzarb masala ekanligini ko'rsatadi. Maqolada A.Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari misolida o'sha davr ustuvor qadriyatlari haqidagi tahlillar berilgan. Tahlil natijalariga ko'ra, "Turkiy guliston yoxud axloq" asari "Hifzi lison" bo'limida ustuvor qadriyatlar sifatida milliy o'zlikni anglash va asrash, jumladan, milliy til, adabiyot, lisoniy etika, ta'lim ko'rsatilgan hamda o'sha davr lisoniy vaziyati to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Mazkur asarda til ta'limi qadriyat sifatida uch aksiologik blokda, ya'ni, til ta'limi davlat darajasidagi, til ta'limi ijtimoiy qadriyat va til ta'limi shaxsiy qadriyat sifatida namoyon bo'lgan.*

Kalit so'zlar: *qadriyat, til ta'limi, aksiolingvistika, qiymat, qadriyat, til, aksiologik ong, baho, baholash, subyekt, ijtimoiylashuv, jamiyat, sotsiolingvistika, lisoniy vaziyat.*

Комилова Гавхарой (и.о. доцента Ташкентского государственного университета Узбекского языка и литературы имени А.Навои, PhD; e-pochta: r_gavharov@mail.ru; ORCID: 0000-0003-4846-2100)

ЯЗЫКОВОЕ ОБРАЗОВАНИЕ КАК ЦЕННОСТЬ

Аннотация. *Поскольку ценности рассматриваются как компонент языка, в свою очередь, внимание уделяется привитию ценностей в процессе языкового образования. Это показывает, что рассмотрение языкового образования как ценности является актуальным. В статье анализируется приоритетные ценности того времени на примере работы А.Авлони «Туркий гулистон ёхуд ахлоқ». По результатам анализа в разделе «Хифзи лисон» произведения «Туркий гулистон ёхуд ахлоқ» в качестве приоритетных ценностей обозначены понимание и сохранение национальной идентичности, включая национальный язык, литературу, языковую этику, образование. Также приводятся сведения о языковой ситуации того времени. В данной работе языковое образование как ценность представлено в трех аксиологических блоках: языковое образование на государственном уровне, языковое образование как социальная ценность и языковое образование как личностная ценность.*

Ключевые слова: *ценность, языковое образование, аксиолингвистика, ценность, значение, язык, аксиологическое сознание, оценка, оценивание, субъект, социализация, общество, социолингвистика, языковая ситуация.*

Komilova Gavharoy (Acting Associate Professor of the Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature named after A.Navoi, PhD; e-mail: r_gavharoy@mail.ru; ORCID: 0000-0003-4846-2100)

LANGUAGE EDUCATION AS A VALUE

Annotation. *Since values are considered as a component of language, attention is paid to the instillation of values in the process of language education. This shows that the consideration of language education as a value is relevant. The article analyzes the value of language education and the priority values of that time using the example of A.Avloni's work "Turkiy guliston yohud axloq" According to the results of the analysis in the "Hifzi lison" section of the work "Turkiy guliston yohud axloq", the understanding and preservation of national identity, including national language, literature, language ethics, and education are designated as priority values. Information about the language situation of that time is*